

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili .....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNING IJTIMOYIY-KREATIV KOMPETENTLIK DARAJASINI ANIQLASHDA PSIXODIAGNOSTIK YONDASHUV VA TAMOYILLARDAN FOYDALANISH****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ПРИНЦИПОВ ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ СОЦИАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ****USE OF PSYCHODIAGNOSTIC APPROACHES AND PRINCIPLES IN DETERMINING THE LEVEL OF SOCIO-CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE PEDAGOGUES****Mahmudova Sumbula Abdumalikovna**   
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning kognitiv-metodik tizimi hamda islohotlar sharoitida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini va kreativ kompetentsiyani rivojlantirish o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish masalalari tahlil qilingan.

**Аннотация**

В данной статье исследуется познавательного-методическая система развития социально-творческой компетентности будущих педагогов и развития навыков социальной активности и творческой компетентности у будущих педагогов в условиях реформ. Педагогические вопросы развития социально-творческой компетентности будущих педагогов также проанализированы на основе интегративного подхода.

**Abstract**

In this article, the cognitive-methodical system of developing socio-creative competence in future pedagogues and the development of social activity skills and creative competence in future pedagogues in the conditions of reforms are studied. Pedagogical issues of developing socio-creative competence in future pedagogues were also analyzed based on an integrative approach.

**Kalit so'zlar:** pedagog, ijtimoiy-kreativ, kompetentlik, kognitiv-metodik, ijtimoiy faollik, ko'nikma, malaka, kompetentsiya, integrativ yondashuv, rivojlantirish, pedagogik model, reproduktiv, funksional.

**Ключевые слова:** педагогический, социально-творческий, компетентность, познавательного-методическая, социальная деятельность, умение, квалификация, компетентность, интегративный подход, развитие, педагогическая модель, репродуктивный, функциональный.

**Key words:** pedagogic, social-creative, competence, cognitive-methodical, social activity, skill, qualification, competence, integrative approach, development, pedagogical model, reproductive, functional.

**KIRISH**

Pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini va ijtimoiy faollik ko'nikmalariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga ijtimoiy faollikni ham namoyon qila bilishni, ijtimoiy an'analar va ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Zamonaviy oliy ta'lim talabalariga ko'ra, bitiruvchiga ko'p miqdordagi bilim yoki kompetensiyalar to'plamini berishdan ko'ra tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda ishlash tayyorgarligiga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni mazmunli idrok etish va tanqidiy baholashga, ularning rivojlanishini bashorat qilishga, ularga moslashish qobiliyatini ta'minlaydigan jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash ustuvorlik kasb etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ta'lim oluvchilarning kreativ ishlashga o'rgatish, ularda turli kompetensiyalarni o'stirish jihatlari

## PEDAGOGIKA

N.Azizxo'jayeva, A.Aripdjanova, G.Ibpagimova, N.Muslimov, O'.Tolipov, F.Exsonovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, kpeativ o'qitish muammolari M.Kadirova, Sh.Pozilova, A.Xalikov, Sh.Sharipov tomonidan tadqiq etilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasini hal qilishda hozirgi paytda ta'limning o'zi ham ijtimoiy institut sifatida qaralishini yodda tutish kerak. Shu ma'noda, o'qituvchilar jamiyatda ikki muhim rol o'ynaydi: bir tomondan, ular "ijtimoiy buyurtma" ning bevosita ijrochisi, ikkinchi tomondan, mustaqil ijtimoiy kuch sifatida harakat qiladi, buning natijasida, jamiyatdagi ta'limning yetakchi roli yosh avlodni ijtimoiy ideal va shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiradi.

Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasi psixodiagnostikasida quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - bo'lajak pedagog shaxsining o'zaro bog'liq fazilatlarini tizimini, aql-idrokning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini, o'z-o'zini anglash xususiyatlarini, hissiy rivojlanish darajasini, irodaviy va kommunikativ sohalarni hisobga olgan holda o'rganish;

2) dinamik yondashuv - o'rganish davomiyligi, ya'ni turli xil ta'lim va kommunikativ vaziyatlarda subyektlarning xatti-harakatlarini kuzatish, talabalarning rivojlanish dinamikasini o'rganish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash uchun yetarli vaqt;

3) prognostik yondashuv - unda so'rov natijalari nafaqat talabalarning kerakli fazilatlarini va ko'nikmalarini aniqlash, umumiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish, balki uning shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish prognozi, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy-kreativ yondashuv nuqtai nazaridan uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilganligi.

Ekspirimentni aniqlash bosqichida natijalarning optimal darajadagi ishonchlilikini ta'minlash uchun quyidagilarni aniqlash kerak edi:

- maqsad uchun qanday mezonlar tanlanadi;

- nima o'lchanadi (talabalarning individual xususiyatlari, ularning yutuqlari, o'quv faoliyati ko'rsatkichlari, ularning mehnat va ijod mahsuli va boshqalar);

- pedagogik diagnostikaning qanday usullari qo'llaniladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentligini aniqlashning quyidagi tamoyillarini shakllantirish mumkin:

- ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlari va faoliyatining turli jihatlarini baholashning murakkab xarakteri, bu har xil ma'lumot manbalaridan foydalanish va qobiliyatlarining eng keng doirasini qamrab olishga imkon beradi;

- talabalarning xatti-harakatlarini o'rganish, kuzatish va baholash bosqichining davomiyligi;

- moyilligi va qiziqishlariga eng mos keladigan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarining xatti-harakatlarini tahlil qilish (yoshlarni maxsus tashkil etilgan subyekt-o'yin faoliyatiga qo'shish, uni tegishli mavzuli faoliyatning turli shakllariga jalb qilish va h.k).

Bunda biz pedagog olim S.V.Goncharov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy sifatlar va ijodiy qobiliyatlarni aniqlash mezonidan foydalndik: Unga ko'ra, ijtimoiy kompetentlikning umumiy mezonlarini keltiradi. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy-kreativ kompetentlikning mezonlari va empirik ko'rsatkichlari quyidagicha taqdim etilishi mumkin [6]:

1. Shaxsning qadriyatli o'z-o'zini anglashi. Bu uning tanlangan qadriyatlarni konsepsiyalarda ifodalash, ularni asoslash, voqealarni qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash, inson, jamoa, Vatan, davlat, mehnat, mulk mavjudligini qadriyatlar asoslarida aniqlash; o'zining madaniy va boshqa o'xshashliklarini tushunchalarda ifodalash; rasmiylashtirilgan maqsadni, xulq-atvorning ijtimoiy yo'nalishida, hayot tarzining ustun elementlarida belgilash.

2. Aniq ijtimoiy bilimlar metodologik, kategorial, refleksiv, loyihaviy va konstruktiv (operatsional bajarilishi) tafakkurda namayon bo'ladi va u oddiyni umumiyda, umumiyyni alohidada tushunish qobiliyatini, ijtimoiy masalalarni umumiy shaklda yechish va ularni aniq holatlarda qo'llash imkonini beradi.

3. Subyektiv fazilatlar shaxsning fikrlash, iroda, e'tiqod va hissiyotlarida, o'zini o'zi belgilash qobiliyatida, axloqiy, siyosiy, professional va boshqa munosabatlarida; mustaqil tanlash, qaror qabul qilish, qabul qilingan va bajarilgan ishlar uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish, harakat va aloqa uchun yangi ijtimoiy ahamiyatga ega variantlarni ijodiy ravishda

modellashtirishda; o'zini o'zi boshqarishda, havaskorlik chiqishlarida, o'z-o'zini tarbiyalashda namoyon bo'ladi. Subyektivlikning yakuniy ko'rsatkichi – bu shaxs mustaqilligi hisoblanadi.

4. Ijtimoiy-kreativ kompetensiyaning prakseologik komponenti shaxsiy, fuqarolik va kasbiy sohalarida yashash tarzini egallashda, tashkiliy va texnologik konstruktivlikda, vaqt birligiga samarali mahsuldorlikka erishishda namoyon bo'ladi [1].

Shu bilan birga, boshqa olimlarning tadqiqotlarini ham ko'rib chiqildi. Xususan, Z.A.Aksyutina ijtimoiy kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqqan bo'lib, ular pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy mobillikni, kasbiy sohasidagi madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ta'lim makonining integratsiyalashuvini ifodalaydi. Ular quyidagilar:

- o'z sohasining ijtimoiy jihatlari va ularning kasbiy ijtimoiy faoliyati to'g'risida nazariy bilimlar kompleksining mavjudligi;

- professional ijtimoiy muloqot va faoliyat vositalari to'g'risida amaliy bilimga egalik;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish, talabalarda gumanizm va bag'rikenglikka doir ijtimoiy jarayonlarga yetarlicha tushunish qobiliyatini shakllantirish;

- ijtimoiy-pedagogik qarorlarni qabul qilishga va pedagogik faoliyat natijalariga ta'sir qiluvchi kommunikativ xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqishda ijodkorlik qobiliyati;

- zamonaviy pedagogik mahoratning mavjudligi, ilg'or pedagogik texnologiyalarga egalik qilish, bilim va ijtimoiy-madaniy ta'limning psixologik-pedagogik asoslarini muvaffaqiyatli qo'llash [2].

Boshqa bir olim O.V.Barkunova o'z talqinida ijtimoiy kompetentlikni shaxs faoliyatining tizimli xarakteristikasi sifatida aniqlashga asoslanadi, u amalda kasbiy kompetensiyalar tizimi orqali amalga oshiriladi, bu kompleks usul va harakatlar (ko'nikmalar) majmui bo'lib, ular professional funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan. Muallif mezon sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan professional ijtimoiy kompetensiyalarga murojaat qiladi:

- qadriyatli-motivatsion kompetensiya – bu dunyoqarash sohasidagi kompetensiya bo'lib, u predmetning (bizning holatimizda, tarix) va kasbning roli, ishlash natijalarining ahamiyati, kasbiy yo'naltirilganligi, refleksiv qobiliyatlari to'g'risidagi g'oyalar bilan bog'liq kompetensiya;

- kognitiv kompetensiya – o'z-o'zini tarbiyalash orqali o'z bilimlarini tizimli ravishda to'ldirish, ijtimoiy o'zaro bog'liqlik holatlarini tahlil qilish, tarbiyaviy ijtimoiy-madaniy vazifalarni shakllantirish va ularning maqbul yechish yo'llarini aniqlash qobiliyatida namoyon bo'ladi;

- ijtimoiy-psixologik kompetensiya – uning tarkibiga quyidagilar kiradi: refleksiv mahorat, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish, tez qaror qabul qilish va pedagogik ta'sirning eng samarali vositalarini topish qobiliyati;

- kreativ kompetensiyasi – ta'lim oluvchilar bilan individual va o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ijtimoiy ishlarning eng oqilona shakllarini tanlash qobiliyatida, o'z faoliyatining yakuniy natijasini bashorat qilish qobiliyatida, ijtimoiy-madaniy o'zaro ta'sir vaziyatlarini tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Mezon – bu o'rganilayotgan hodisaning eng muhim xususiyatlari sanaladi, ular meyor, etalon kabi tushunchalar bilan uyg'unlik kasb etadi va uning eng mukammal, muhim darajasini ifodalaydi. Mavjud holatni u bilan o'zaro bog'lab, ularning tasodifiylik darajasini va shu sababli meyorga yaqinlashishini aniqlash va tavsiflash mumkin [4, 6].

### XULOSA

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik ko'nikmalari va ijodkorlik qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy-kreativ kompetensiyani integrativ ta'lim asosida rivojlantirish tizimlilikni, prinsipiallikni va izchillikni talab etishi, integratsion ta'lim talablari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagogika fanlarini o'qitishni, pedagogik jarayonni yo'lga qo'yishni talab etishi aniqlandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Znak N., Sedova N. Approaches to the development of key competences of the 21st century in the national research university higher school of economics. Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference, vol. I, May 25th-26th, 2018, – p. 656-666. Available at: <http://dx.doi.org/10.17770/sie2018vol1.3238>

2. Авазбоев А.И. Уқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш. Ном. дисс. 13.00.02. п.ф.н. Тошкент, 2001.-Б. 12.

3. Алимов С.Ш. Формирование социокультурной компетенции учителей общеобразовательных школ республики Таджикистан. Дисс. ...канд. пед. наук. Душанбе, 2009.

PEDAGOGIKA

---

4. Баркунова О.В. Формирование профессиональной компетентности социального педагога в процессе педагогической практики: Автореф. ... дисс. канд. пед наук. Шуя, 2010.
5. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе: автореф. дисс. канд. пед. наук: –Красноярск, 2013. – 17 с.
6. Гончаров С.В. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение// Образование и наука. 2004. № 2 (26). С. 3 – 18